



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga 8 - sinflar uchun
adabiyot fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf adabiyot fanidan II chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
II chorak				
1.	Lutfiy. G‘azallar (“Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul”	1		
2.	“Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azali. Nazariy ma'lumot. G‘azal haqida tushuncha. G‘azal turlari.	1		
3.	Xayriddin Sultonov: “Saodat sohili” qissasi	1		
4.	“Saodat sohili” asari tahlili	1		
5.	“Saodat sohili” matni ustida ishlash	1		
6.	Nazorat ishi-3	1		
7.	Alisher Navoiy. G‘azallar	1		
8.	Alisher Navoiy g‘azallari tahlili	1		
9.	Nazariy ma'lumot: She'riy san'atlar haqida tushuncha.	1		
10.	Alfons Dode “So‘nggi saboq” hikoyasi	1		
11.	Alfons Dode “So‘nggi saboq” hikoyasi matni ustida ishlash	1		
12.	Nazorat ishi-4	1		
13.	Adabiy laboratoriya	1		
14.	Adabiy laboratoriyada qilingan ishlar taqdimoti	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Lutfiy. G‘azallar (“Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul”

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va undan foydalana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Lutfiy — o‘zbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrlardagi eng mashhur link shoir. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni «malik ul-kalom», y a ‘ni «so‘z podshosi» deb e ‘zozlagan. Manbalarda taxallusi oldidan «ulug‘ ustod» ma’nosidagi «Mavlono» sifatining qo‘shib tilga olinishi ham — shundan. Obro‘yi va shuhrati juda yuksak darajaga yetgan edi. Alisher Navoiy uni, o‘zining ustozlaridan biri, deb biladi. Buni shoirlar

haqidagi «Majolis un-nafois» tazkirasida shu ulugʻ shoir haqida aytilgan ushbu iliq soʻzlar ham isbotlaydi: «Mavlono Lutfiy oʻz zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yoʻq erdi... va turkcha devoni ham m ashhurdur». Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuwat» degan ta s aw u f vakillari — shayx-

avliyolar toʻgʻrisidagi tazkirasida esa Lutfiyning uzoq umr

koʻrgani va qabri haqida ham qimmatli maʼlumot beriladi: «...Toʻqson toʻqqiz yoshida olamdin oʻtdi. Qabri

Dehikanordadur, oʻz maskani erdi». Bundan shoiming Hirot

da hayot kechirgani, oʻzi yashagan Dehikanor degan qishloqda dafn

etilganini bilib olamiz. Lutfiy milodiy 1366- yili tugʻilib, 1465-

yili vafot etgan. Bu ustoz shoir dunyodan oʻtganda Alisher

Navoiy 24 yoshda edi. XV asming birinchi yarmida oʻzbek tilida

yaratilgan «Gul va Navroʻz» dostoni shoʻrolar davrida uzoq

yillar Lutfiyning asari sifatida xato taxmin etib kelingan

edi. Ammo keyingi tadqiqotlar bu doston oʻsha davrda yashab,

ijod etgan shoir Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanini

koʻrsatdi. Lutfiyni Alisher Navoiy oʻzigacha b oʻlgan oʻzbek

sheʼriyatining eng kuchli, eng taniqli shoiri sifatida baholaydi. U

Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiy kabi

oʻzbek shoirlarini sanay turib, oʻzbek sheʼriyatida «mashhur forsiy shoirlar muqobalasida

(qarshisida) kishi paydo boʻlmagan»ini aytadi. Ammo ular orasida Lutfiyni alohida ajratib

koʻrsatadi: «...Bir Mavlono Lutfiy din oʻzgakim, bir necha matlallari borkim, tabʼ ahli (nozik didli

adabiyotchilar) qoshida oʻqusa, b oʻlur». Bundan anglashiladiki, Lutfiy Navoiygacha b oʻlgan

davming eng oldi oʻzbek shoiri edi. U fors-tojik tilida ham goʻzal sheʼrlar bitgan zullisonayn (ikki

tilli) ijodkor edi. Bizgacha Lutfiy turkiy (oʻzbekcha) devonining XVI - XX asrlar mobaynida k

oʻchirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Bu qoʻlyozmalar dunyoning turli shaharlaridagi eʼtiborli

kutubxona va qoʻlyozmalar xazinalarida saqlanadi. Olimlarning hisob-kitobiga koʻra, shoir

merosining umumiy miqdori - 3 ming baytga yaqin. Buning 75 foizini gʻazal janri namunalari

tashkil etadi. Shoir, gʻazaldan tashqari, qitʼa, ruboiy, tuyuq va fard janrlarida ham ijod qilgan.

Lutfiy lirikasi faqat oʻzbek sheʼriyati vakillarigagina emas, boshqa turkiy xalqlar, jumladan,

turkman, ozarboyjon, usmonli turk shoirlari ijodiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Bobur nomli

xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan 2006- yili Hirot yaqinida joylashgan Dehikanor (hozirgi

Nangobod) qishlogʻidagi Lutfiy qabri aniqlashtirilib, u yerda oʻzbek milliy uslubida ayvonli yangi

maqbara bunyod etildi. Shoiming, xususan, gʻazal va tuyuqlari XV asr oʻzbek lirikasining goʻzal

namunalari hisoblanadi. Hozirgi paytda ham shoiming k oʻplab gʻazallari qoʻshiq qilib kuylanadi.

Ular xalqimizning sevimli ashulalari safidan jo y olgan.

GʻAZALLAR

“XOH INON, XOH INONMA” RADIFLI GʻAZAL

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,

Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimgʻa eshikingdin

Yoʻqtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk k oʻzing ashkolina har gah nazar etsam,

Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Yoqub bikin k oʻp yigʻidin qolmadi sensiz

Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oyy u zun gʻa k oʻz solgʻali oʻzga kishi birla

Yoʻqtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq oʻtida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,

Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

Bu gʻazal tamoman turkona ruhda bitilgan. Tilimizda kelib chiqishi jihatidan sof oʻzbekcha boʻlgan soʻzlardan tashqari, fors-tojikcha hamda arabcha kalimalar ham k oʻp uchraydi. «Turkona» deyilganda shu narsa k oʻzda tutiladi ki, sheʼrda oʻzbekcha soʻz va iboralar qoʻllash asosiy oʻrin tutadi. Gʻazal - anʼanaviy yetti baytdan iborat. Anʼanaviyligi shundaki, oʻzbek mmntoz sheʼriyatida koʻp gʻazallar aynan yetti qoʻshmisradan tashkil topgan b oʻladi. Sheʼr aruzning nisbatan murakkab turlaridan biri boʻlmish hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki



maqsur), y a 'ni *maf'uvlu* — *mafoiylu* — *mafoiylu* — *faulun (yoki mafoiyl)* vaznida bitilgan. Taqte'si: — V / V — V / V — V / V — - (yoki V —).

G'azalda ishq mavzusi qalamga olingan. Link qahramon oshiq nomidan so'zlaydi. To'g 'ridan to'g 'ri ma'shuqaga murojaat qiladi. Biroq bu yerda zimdan ilohiy ishq ko'zda tutilganini ham unutmaslik kerak.

Qofiyasi («sevarim — jigarim - saharim - guzarim - xabarim- basarim - nazarim - siymbarim») va radifi («xoh inon, xoh inonma») - juda jarangdor. Asar qurilishida ularning alohida o'mi bor. Xususan, radifning to'rt so'zdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Radifning o'zida tazod bor: «xoh inon» bilan «xoh inonma» o'rtasidagi o'zaro m a 'no zidligi asarga alohida badiiy joziba baxsh etgan. «Inonma» - hozirgi tilimizda mavjud «ishonma» so'zining XV asrdagi shakli. Mamlakatimizning ayrim hududlarida (masalan, Buxoro viloyatida), shuningdek, Afg'onistondagi o'zbek shevalarining b a 'zilarida hozir ham «ishonma» o'miga «inonma» shakli ishlatiladi. G'azalning tili - sodda, ravon. Murakkab, falsafiytasawufiy so'z va timsollar — uchramaydi hisob. Shuning uchun g 'azal mazmuni - bugungi o'quvchi uchun ham tushunarli. Baytlar yengil kayfiyat, ayrica bir ishqiy zavq bilan o'qiladi. Hozirgacha hofizlarimiz bu g 'azalni qo'shiq qilib kuylayotgani ham shundan b o'Isa kerak. Bu g 'azal ham mumtoz y o'lda, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan. Matlada, rad if («xoh inon, xoh inonma»)dan tashqari, to'rttagina («sensa», «sevarim», «qondur» va «jigarim») so'z ishtirok etgan. Bu birinchi bayt amalda yorga oshiqlikni anglatadi, xolos. Lekin qo'shmisra mazmunidan uning to'g 'ridan to'g 'ri yorga murojaat ekani bilinib turibdi. Ikkinchi baytda ustalik bilan oshiqning hijron (ayriliq) kechasida sahargacha oh chekkani, bu charxi falakka yetgani aytiladi. Birinchi misra oxiridagi «moh» so'zi bilan ikkinchi misra boshidagi «oh» o'zaro ohangdoshlik pay do qilganki, bu ham shoiming yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi. Uchinchi bayt alohida izoh talab qiladi. Buning uchun avval «guzar» so'zining ayni matndagi xos ma'nosini tushunib olish kerak. Agar bu so'zni «o'tish» deb anglasak: «Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan o'tmayman», - degan g 'azaldagi umumiy mantiqqa zid ma'no-mazmun kelib chiqadi. Shuning uchun bu so'zni «ketish» ma'nosida tushunish lozim. Shunda: «Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan nari ketmayman», - degan to'g 'ri ma'no anglashiladi. To'rtinchi baytda lirik qahramon har vaqt yorining suzuk («usruk») k o'zi shakliga qaraganida hushidan ketib qolishi («qolmas xabarim»)ni aytib: «Bunga xoh ishon, xoh ishonma», - deydi. Xuddi ikkinchi baytdagi kabi, to'rtinchi qo'shmisra birinchi satrida «nazar» so'zi qo'llangan: uning g 'azal qofiyasidagi so'zlarga (ular orasida «nazarim» ham uchraydi) umumiy hamohangligi bor. Beshinchi baytda talmeh san'ati ishlatilgan. Shoirning lirik qahramoni Yoqub alayhissalom kabi ko'p y ig'layverganidan «nuri basari qolmagani», ya'ni ko'zlari ko'r bo'lganini aytadi. Yoqub alayhissalom o'g 'li – Yusuf alayhissalom dardida ko'p y ig'lab, ko'r bo'lgan. Bu mumtoz she'riyatimizda ko'p bor tilga olinadigan yoki unga ishora qilinadigan tarixiy voqealardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig'layverib, ko'zdan qolganini aytish uchun shu talmehdan foydalanadi. Oltinchi baytda yana bir muhim nuqtaga e'tibor qaratiladi. Yor timsolida zimdan Tangri taolo k o'zda tutilgani uchun u hamisha yakka-yu yagona zot sifatida ta'riflanadi. Bu baytda ham lirik qahramon yorini o'zga kishi bilan yonma-yon k o'rishni istamasligini ta'kidlaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. G'azal mazmuni haqida ma'lumot bering.
2. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. Maqtada Lutfiyning yuzi oltinni yashirgani zamirida qanday ma'no ko'zda tutilgan?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Quyi sinflarda egallagan nazariy bilimlaringiz asosida yuqoridagi g'azallarda uchraydigan badiiy san'atlarni toping, ularni daftaringizga yozing va izohlang.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azali. Nazariy ma‘lumot. G‘azal haqida tushuncha. G‘azal turlari.

Darsning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e‘tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni ehtiyojga aylantira olish;
badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlash va ularga amal qilish;
badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;
o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

badiiy adabiyot va san‘atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

«QILADURG‘ON BU KO ‘NGULDUR, BU KO‘NGUL» RADIFLI G‘AZAL

Meni shaydo qiladurg‘on bu k o‘nguldur, bu k o‘ngul,

Xor-u rasvo qiladurg‘on bu k o‘nguldur, bu k o‘ngul.

O‘qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun

Muttasil yo qiladurg'on bu k o'nguldur, bu k o'ngul.
 Meni yozg'urma: «Sevar», — debki, mening haddim emas,
 U1 tamanno qiladurg'on bu k o'nguldur, bu ko'ngul.
 «Borma, - derlar, — eshiki sori damo-dam», - netayin,
 Ko'p taqozo qiladurg'on bu k o'nguldur, bu k o'ngul.
 Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada
 Jonni savdo qiladurg'on bu k o'nguldur, bu k o'ngul.
 Dushman-u do'st orasinda meni g 'ofilni mudom,
 Besar-u po qiladurg'on bu k o'nguldur, bu k o'ngul.
 O'zgadin k o'rmoki k o'zung yoshini, ey Lutfiy,
 Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

G'azal an'anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. U yetti baytdan iborat. Vazni — ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), y a 'ni foilotun — foilotun - foilotun – foilun (yoki foilon). Taqte'si: —V — / — V — / - V — / — V — (yoki — V ~). G'azal vazni bekorga bu tarzda ikki xil qilib belgilanmadi. Ya'ni oxirgi ruknning «foilun» yoki «foilon» ekani qayd etilishining jiddiy sababi bor. G'azaldagi oltinchi baytning birinchi misrasi «mudom» so'zi bilan tugaydi. Aruz vaznida «-dom» o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi va bu g 'azalda u bilan tugallangan rukn «foilun»ga emas, aynan «foilon»ga tushadi. Aruzda har qanday she'r, qaysidir misraning oxirgi hijosiga k o'ra, xuddi ana shunday bir-biridan ozgina farq qiladigan ikki vaznda bitilishi mumkin. Bu asarida shoir besh so'zdan iborat radif qo'llagan («qiladurg'on bu k o'nguldur, bu k o'ngul»). G'azal radifidagi barcha so'zlar - turkiy. Qofiyasi - arabiy-forsiy kalimalar («shaydo - rasvo - yo - tamanno - taqozo – savdo po - daryo»)dan tashkil topgan. Ko'ngul mumtoz she'riyatimizning asosiy tasvir manbasi hisoblanadi. Chunki, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh kishining ko'nglidagina aks etadi. Ishq ham — ko'ngil ishi. Lirik qahramon ishq bobida barcha «ayb»ni k o'ngliga qo'ymoqchi: uni shaydo, xor-u rasvo (matla), qora qoshliklar uchun o'qdayin tik qomatini yoydek egik qiladigan (ikkinchi bayt) ham - shu k o'ngil. **«Meni sevdi deb ayblama, buni istayotgan ham — ko 'ngil»** (uchinchi bayt), - deydi lirik qahramon. U mulohazalarini davom ettiraveradi: «Eshigiga tez-tez boraverma, - deyishadi, - lekin ko'ngil shuni talab qilsa (taqozo etsa), nima qilay» (to'rtinchi bayt)? Qorong'i kechada sochining tolasiga havasi kelib, jonni unga almashadigan («savdo qiladurg'on») ham (beshinchi bayt), do'st-u dushman ichida men g 'ofil bandani boshsizoyoqsiz qilib qo'yadigan ham (oltinchi bayt) — shu k o'ngil. Maqtada lirik qahramon Lutfiyga murojaat etib, bu ishni boshqadan ko'rma, k o'z yoshlaringni daryodek to'kayotgan ham — aynan **«bu ko 'nguldur, bu ko 'ngul»**, — deydi. Bu g'azal hozirgacha xonandalarimiz tomonidan sevib kuylanadi. Oradan to'rt yuz yil o'tib, XIX asming birinchi yarmida Nodira Lutfiyning shu g 'azaliga o'xshatma yozdi.

“AYOQINGG'A TUSHAR HAR LAHZA GISU...” G'AZALI

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,
 Masaldurkim1: «Charog' tubi - qorong'u».
 Tuturmen k o'zki, k o'rsam orazingni, —
 Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar su(v)».
 Yuzungni tuttum ortuq Oy-u Kunder,
 «Kishining k o'zidur, ore, tarozu».
 K o'zing qonimdin iymalmas, ajabtur, —
 Ki: «Qo'rqar, qaydakim qon k o'rsa, hindu».
 Tilar vaslingni, Lutfiy, qil ijobat, -
 Ki ayturlar: «Tiloganni — tilogu».

Lutfiy — yozma adabiyot vakili. Biroq so'z san'ati tarixidan yaxshi bilamizki, dastlab og'zaki adabiyot yuzaga kelgan. Yozma adabiyot ana shu folklor zaminida paydo bo'lgan. Shuning uchun o'zbek mumtoz she'riyati taraqqiyotini xalq og'zaki ijodi ta'siridan ayri holda ta'savvur qilish aslo mumkin emas. O'qiganingiz g 'azal buning yorqin bir isboti yanglig' jaranglaydi. Uni muallif tamoman o'zbek xalq maqollari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir bittadan maqol qo'llaydi. Maqollar har bir baytda go'yo baytlar birinchi misrasida aytilgan fikrga bir isbotdek keltiriladi. Shuning uchun barcha baytlarning ikkinchi satri maqol bilan tugaydi. Shundan ham

bilib oldingizki, shoir avval besh ta bir-biriga qofiyadosh soʻz bilan tugaydigan maqol topgan. Shu tariqa gʻazal besh baytdan iborat qilib bitilgan. Gʻazal hazaji musaddasi mahzuf, yaʼni «**mafoiylun -mafoiylun —faulun**» vaznida yozilgan. Taqteʼsi: V / V / V - - .

Matla - nihoyatda goʻzal. U Lutfiyga xosluft bilan qogʻozga tushgan: har lahza soching oyogʻing ostiga tushadi, shuning uchun maqolda aytilganidek, «**Chirogʻ tubi — qorongʻ u**». Bu yerda yoming yuzi aytilmagan holda oppoq nur taratib, yonib turgan chiroqqa qiyoslanayпти. Baytda keltirilgan maqol - juda mashhur. Biroq hozirgi zamonda shamchiroq deyarli ishlatilmagani uchun bu maqol kam qoʻllanadi. Holbuki, sham yoqilganda kuzating, rostdan ham uning tubiga nur tushmaydi, shuning uchun u yer qorongʻi boʻladi. Baytdagi «gisu» soʻzi sochni anglatadi. Tasvirlanishicha, yoming sochi har doim oyogʻining tubiga tushib turadi. Ikkinchi satrda maqol keltirish orqali shoir yomi zimdan tik turgan shamga oʻxshatayпти. Endi ziyrak oʻquvchi uning shamdek oppoqligi-yu yuzining yonib turgan shamdek yorugʻligini taʼsir qilaveradi. Shoir yoming sochini ana shu qorongʻulikka oʻxshatayпти. Maqolning kuchi bilan baytda ifoda ixchamligiga, shu bilan birga, badiiy jozibaga erishilgan. Ikkinchi baytda lirik qahramon yoming yuzini (orazini) koʻrishga koʻz tutayotganini aytadi, axir, maqol bor-ku: «**Oqqan ariqqa oqar su(v)**». Bu maqol hozir ham koʻp ishlatiladi. Faqat endi u «**Oqqan daryo oqaveradi**» shaklini olgan. «Oqqan ariqqa oqar su(v)» maqoli, asosan, umidvorlik maʼnosida qoʻllanadi. Baytda u aynan shu vazifani oʻtagan. Bu maqol lirik qahramonning «tuturmen koʻz» degan fikriga mantiqiy asos sifatida kelgan: axir, ariqda suv oqqanmi - yana oqadi. Uchinchi baytda ham yuz tasviri izchil davom etadi. Shoir uni: «Oy bilan Kun (Quyosh)dan ham ortiq», — deb taʼsir qilayпти, chunki «**Kishining koʻzi - tarozi**» degan maqol bor-ku. Bu yerda ham maqol lirik qahramon birinchi satrda aytgan fikrining tasdigʻi sifatida qoʻllangan. Chunki birinchi misrada mubolagʻa qilinyapti. Bu gapimga shubha qilmanglar, demoqchi shoir, kishining koʻzi — tarozi, yaʼni u toʻgʻri oʻlchayпти, adashtirmayпти. Shu tariqa toʻrtinchi baytda tasvir yuzdan koʻzga oʻtib oladi. Lirik qahramon yor koʻzi oshiq qonidan iymannayotgani, yaʼni qoʻrqmayotganiga ajablanadi. Chunki, axir: «Hindi qayda qon koʻrsa, qoʻrqadi» degan maqol bor ediku! Bu yerda ochiqdan ochiq «koʻzing - hindi» deyilayotgani yoʻq. Lekin koʻz tasviri bilan maqolda «hindi» soʻzi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqargan. Aksar hindlarning koʻzlari qop-qora boʻlishiga ishora qilingan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Yozma adabiyotning xalq ogʻzaki ijodi bilan aloqadorligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Gʻazal mavzusi, vazni, qofiyasini tahlil qiling.
3. Matladagi tasvir goʻzalligi va soʻz nazokati haqida gapirib bering.
4. Baytlar mazmuni va ulardagi xalq maqollari badiiy vazifasini birma-bir sharhlang.
5. Gʻazaldagi oʻzbek xalq maqollarini daftaringizga yozib oling, ularning hozirgi tilimizda mavjud yoki mavjud emasligini, oʻzgargan boʻlsa, hozirgi shaklini aniqlang.

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Siz bilan Lutfiy ijodiga mansub bir nechta gʻazalni koʻrib chiqdik. Quyidagi topshiriq orqali gʻazallar mohiyatini chuqurroq ochib berishga harakat qiling. Jadvalni daftaringizda toʻldiring.

T/r	Gʻazal	Qofiyadosh soʻzlar	Asosiy gʻoya	Asosiy gʻoyani ifodalaydigan kalit soʻzlar
1.	"Sensan sevarim..."			
2.	"Meni shaydo qiladurgʻon..."			
3.	"Ayoqinggʻa tushar..."			

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat adabiyot fanidan 8-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar